

JISMONIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BOR BOLALAR TARBIYASIDA O'YINCHOQLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Maxsus pedagogika kafedrasining katta o'qituvchisi Tangirova D.E.

Annotatsiya: Ta'lim jonkuyarlari o'qituvchi-murabiylar ish tajribasidan shu narsa ma'lumki, har bir bolada iste'dod kurtagi bo'ladi. Uni oilada yoki tarbiya maskanida ilg'ay bilish orqali ularni shakllantirish kerak bo'ladi.

Kalit so'zi: rivojlanishdagi kamchiligi bor bola, o'yin, iqtidor, ta'lim.

Rivojlanish sari yuz tutayotgan davlatimizda ta'limni rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilimlar berish, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida olib borayotgan ishlari butun dunyoda e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining bosh maqsadi bilimli, tashabbuskor, yuksak salohiyatlari, raqobatbardosh iqtidorli kadrlarni voyaga yetkazishdir. CHunki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yo'naliishlari har jihatdan yetuk kadrlarga bog'liq. Yetuk kadrlarni tayyorlash O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. Albatta, bu ishlarning samarali bo'lishi ularning hayotga qanday bilim, qanday intellektual va ma'naviy boylik, qanday zamonaviy bilimlar kirib kelishiga bog'liq.

SHuning uchun pedagogika yo'naliishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarini bo'lg'usi pedagog qilib tarbiyalash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda asosiy e'tibor oliy ta'lim muassasasining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, pedagogika-psixologiya, defektologiya yo'naliishlariga qaratilmog'i lozim. CHunki mazkur yo'naliishlarda tahsil olayotgan talabalar kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, maxsus maktablarga ishga borganlarida asosan nimalarga e'tibor berishini oldindan bilmog'I maqsadga muvofikdir.

Bo'lajak bog'cha tarbiyachisi yoki boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoinki maxsus maktab o'qituvchisi, ya'ni defektolog bo'lsin, ular ish boshlangan ta'lim-tarbiya maskanida o'quvchi-bolalarni tarbiyalashda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu qiyinchiliklar nimalardan iborat? Ularni qanday bartaraf etish mumkin? Biz ana shularni e'tiborga olib, ushbu maqolamizda muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda o'z fikr-mulohazalarimizni keltirib o'tmoqchimiz.

Psixologik jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'rt turi aniqlanadi.

1.Passiv o'zlashtiruvchi o'quvchilar. Bu o'zini xolis baholay olmaydigan sodda insonlar bo'lib, ularga o'z navbatida sodda, tushunarli, qiziqish uyg'otuvchi ma'lumotlarga egadirlar. Ekologik madaniyatni shakllantirishga oid mavzudagi axborotlar ham hayotiy, lo'nda fikrlarda bayon etilsa, ularda ijobjiy munosabat shakllanadi.

2. Faol bo'lgan o'quvchilar. Bular ma'lum bir ma'lumotga ega, yangilikka o'ch o'quvchilar bo'lib ularga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday axborot muammoli, dolzarb, babs talab bo'lgani ma'qul.

3.O'rta darajada bilimga ega bo'lgan o'quvchilar. Bular ma'lum sabablarga ko'ra, tarbiyasi og'ir kimsalar toifasiga kirib qolgan, hayotda aniq maqsadi va maslagi yo'k, o'z ustida ishlamaydigan o'quvchilar. Diniy aqidaparastlarning domiga tushib qolgan yoshlardir. Ular yangiliklar, tafsilotlarga boy axborotlarga o'ch bo'ladi. SHuning uchun bunday toifadagi kimsalarga obro'li shaxslar orqali ta'sir ko'rsatish ma'qul.

4.Quyi darajadagi bilimga ega bo'lgan o'quvchilar. Ularni hayotiy videofilmlar, qiziqarli ko'rsatuv va lavhalar o'ziga jalb qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bunday insonlar uchun ma'lum bir ma'lumot, ya'ni axborot tayyorlanganda, ularning soddaligi, samimiyatga o'chligi va insoniy e'tiborga muhtojligi inobatga olib ish ko'rilsa, samarali bo'ladi. Ular bilan ko'proq muloqot va uchrashuvlar o'tkazish, milliy udumlar, rasmrusumlarimizning ijobiliy jihatlaridan foydalanish maqsadga muvofikdir.

Agar bu narsaga yetarlicha e'tibor berilmasa, unda bir bola a'lochi, boshqasi sust o'zlashtiruvchi bo'lib qoladi. Bu narsa bog'chada tarbiyachini, boshlang'ich sinfda o'qituvchini, maxsus maktabda defektologni judayam qiyinaydigan holat hisoblanadi. Albatta, har bir vaziyatning o'ziga yarasha izohi bo'ladi. Tarbiyachi yoki pedagog bolaning o'quvchilik kezlariga e'tibor berib, bog'chada, sinfdagi (boshqa sinflarda ham) rivojlanishda tengdoshlaridan orqada qolayotgan, ya'ni bunda eshitish qobiliyatida va nutqida nuqsoni bor bolalarning berilayotgan ma'lumotlarni hamda fanlarni nisbatan sekinroq o'zlashtirishiga asosiy e'tiborni qaratishi lozim. CHunki ular nuqsonlarini ayb, o'zlarini esa aybsiz aybdor hisoblashadi. Darslarda eshitishida va nutqida nuqsoni bor bola ovoz chiqarmay o'tiradi, o'qituvchining savollariga ham javob bermaydi (bilmaganidan emas, uyalganidan), amallab qo'ng'iroqqacha yetib olib, uyiga shoshiladi. Ko'pchilikning orasida gapirish u yoqda tursin, jamoat joylarida bo'lishdan o'zini olib qochadi. Bo'lajak mutaxassis ish boshlagan kezlarida shu holatlarni o'z vaqtida anglaganidan keyin vaziyatni o'zgartirishga intila boshlashi kerak bo'ladi. Ularni uyiga boshlab kelib, turli o'yinchoqlar yordamida undagi kamchiliklarni bartaraf etishi ham mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda bolaga berilayotgan ma'lumotni tezda ilg'ay olishiga undashi va bu orqali uning mehnati evaziga rag'batlantirish ma'nosida ularga sovg'a berilsa, rivojlanishida nuqsoni bor bolaga bir tomondan, mukofotga erishish orzusi, ikkinchi tomondan atrofida faqat o'ziga o'xshagan jismoniy va aqliy jihatdan nuqsoni bo'lgan bolalar borligi va ularning mazax qilinmasligiga ishonch tug'iladi. Bu o'z navbatida bolani dadillashtiradi. Uning ruhiyatidagi qo'rquvni sindirishga ko'mak beradi. Tarbiyachi-pedagogning bu intilishlari kelgusida o'z samarasini bera oladi. Uning tarbiyasidagi o'quvchi-bolalar har tomonlama kamol topa boshlaydi.

Psixologiyadan bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, har bir oilada maktabgacha yoshigacha bolaga to'g'ri tarbiya berilsa, ya'ni bunda uning nafaqat jismoniy rivojlanishi, balki aqliy jihatdan ham voyaga yetishiga asosiy e'tibor qaratilmog'i lozim. CHunki oilada tarbiyalanayotgan bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishida ba'zi

nuqsonlar bo'lishi mumkin. Ba'zan nogiron yoki rivojlanishda ortda qolayotgan nuqsonli bolaning chaqaloqlik davri, oilaviy sharoitini o'rganib, ota-onasining unga yetarlicha muhabbat va e'tibor bermagani o'z navbatida bolaning kelajagiga, uning o'sib-ulg'ayishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Ota-onalarning farzandlaridagi bunday nuqsonlarni vaqtida ilg'ay bilishi hamda bu nuqsonlarni bartaraf etish choralarini ko'rmog'i lozim. Bunda ota-onalar farzandlarining rivojlanishi, ya'ni ularning eshitish qobiliyatiga, nutqiga e'tibor qilishsa, bu nuqsonlarni mакtabgacha tarbiya muassasasida yoki maktabning boshlang'ich sinfida tezda bartaraf qilish mumkin bo'ladi. Agar ota-onalarning oilada bolaning eshitish qobiliyatini tekshirgan hoda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish o'rgatishsa, keyinchalik uning nutqidagi nuqsonlarni tuzatishga ham yordam beradi. O'zicha bog'cha yoki maktabdagi ustozlariga taqlid qilib, tengdoshiga so'zlarni to'g'ri talaffuz qildirmoqchi bo'ladi. Bu vazifalarni darsdan so'ng o'yin vaqtida qo'g'irchoqlar yordamida amalga oshirishga kirishadi. Bu jarayonni bola tezda amalga oshirishga kirishib ketadi. Bola uchun dars mashg'ulotidan ko'ra tengdoshlari bilan o'ynaydigan bolalik yoshidagi o'yinlari qiziqroq tuyuladi. Bolalar turli o'yinchoqlar yordamida o'yinlarni o'ynashda, bu mashg'ulotlar ularga maroq bag'ishlaydi. Mashg'ulotlar asnosida asta-sekinlik bilan ularda tarbiyachilik qobiliyati yuzaga chiqa boshlaydi. Keyinchalik atrofiga tengdoshi yoki o'zidan yoshroq bolalarni to'plab mashg'ulotlar o'tishga shu qadar qiziqib ketadi.

Yosh, intiluvchan va izlanuvchan pedagog ishga kelib oq, yangiliklar qilishga kirishadi. Agar u qo'llab-quvvatlansa, eng qoloq boshlang'ich sinfni ham eng yuqori o'zlashtiradigan sinfga aylantirish ham mumkin. Bu aytishga oson ishdek tuyuladi, amalda esa ancha mashaqqatli vazifa hisoblanadi. Istaysizmi, istamaysizmi, mакtabgacha tarbiya muassasasida, maxsus maktab yoki umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarining har birida bo'lmadim deganda, o'quvchilar orasida uch-to'rt nafarining rivojlanishida nuqsoni borligi ma'lum bo'ladi. Bu hol ularning tarbiyasi va fe'l-avtoriga ham ta'sir qiladi. Odamovi, indamas, tarbiyaga bo'y bermaydigan, jizzaki bolalarga aylangan o'quvchilar aniqlanishi kerak. O'qituvchi har bir dars davomida ular bilan shug'ullanishi, balki darsdan so'ng uyga olib kelib, har biri bilan alohida shug'ullanishi lozim. Tarbiyachi-pedagog bolalar uchun faqat o'qituvchi emas, yaqin do'st, sirdosh bo'lishi kerak. SHundagina ularning ko'ngliga yo'l topishi, o'quvchi-bolalarga ruhiy muammolarni yengishga yordam berishi mumkin bo'ladi. Bu o'z navbatida rivojlanishada nuqsoni bor yoki sust o'zlashtiruvchi o'quvchi-bolaning kelgusida, ya'ni tengdoshlariga yetib olishiga zamin hozirlaydi. Yuqori sinflardan esa maktabning a'lochi o'kuvchilariga aylanishi kuzatiladi.

Qoloq o'quvchi-bolalar bilan ishlashdagi yangicha uslub pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi, balki uning endi ishlari ko'payadi. Aqliy rivojlanishda ham tengdoshlaridan ortda qolgan o'quvchi-bolalar bilan ishlash uchun ham maxsus metodika ishlab chiqish lozim bo'ladi. Bunda o'yinchoqlarga keng o'rinni berilish kerak. Tarbiyachi-pedagog muammoning shu tomonlariga asosiy e'tiborni qaratib, har bir dars davomida yoki darsdan tashqari hollarda, ularning har biri bilan alohida-alohida ishlashi kerak va bunda o'yinchoqlardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarbiyachi-

pedagogning o'z ustida muntazam ravishdagi tinimsiz izlanishlari natijasida o'quvchi-bolalar ongining o'sishiga erishish mumkin bo'ladi.

Tarbiyachi-pedagogning obro'sini osmon qadar qiladigan ham, uni yer bilan yakson qiladigan ham o'quvchi-bolalari bo'ladi. Tarbiyachi-pedagog ularga bilim berish uchun harakat qilsa, tarbiyalanuvchilari nazarida mehribon, bilimdon, zukko inson, dunyoni tanitgan zot sifatida e'tirof etishadi hamda tezda tarbiyachi-pedagogning chekkan zahmatlari va qilgan mehnatlarini tezda yuzaga chiqaradi. Ulardagi o'zgarishlarni, hayotga bo'lgan muhabbatni, ko'zlaridagi nurni, kelajakka bo'lgan ishonchni tarbiyachi-pedagog ko'ra bilishi va uni rivojlantirishi maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda jadallik bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti asrida obod, jannatmakon diyorimizda rivojlangan davlatlar singari ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog-murabbiylarning ijodiy tashabbus va g'oyalari o'z vaqtida qo'llab-quvvatlantirilmoqda. Har bir tarbiyachi-pedagog o'z dars mashg'ulotida o'quvchilarni faollikka undaydigan yangiliklarni muntazam ravishda amalga oshirmog'i lozim. Bu esa kelgusida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalanishiga puxta zamin hozirlaydi. Bu ishlarga o'z hissasini qo'shayotgan ustoz-murabbiylarning nufuzini yanada ko'tarish, ulardagi izlanuvchanlik va ijodkorlik xususiyatlarini targ'ib qilish kelgusida mamlakatimizning yanada gullab-yashnashiga, jahonning ko'zga ko'ringan, rivojlangan davlatlari qatorida bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari» Toshkent: 2000. 161 b.
2. Kosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. -T. 1995
3. Po'latova .P.M. "Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika)" T., G'ulom, 2005.
4. Tolipova.J.O., "Pedagogik kvalimetriya". T.: 2015.
5. SHisherina Ya., Nurkeldieva D., Bondareva Ye. Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. T. "Fan va texnologiyalar, 2013.